

Тошкент темир йўл мухандислари институти

“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси

**“Ўзтемирйўлконтейнер” АЖ корхонасининг ахборот тизимида
молиявий ҳисобот ва бухгалтерия кўрсаткичларининг
шаклланиши
мавзусидаги битирув малакавий иши**

**Талаба: Мухиддинов С.Ф.
Рахбар: Султанова С.М.**

Тошкент 2015

Toshkent temir yo'l muxandislari instituti

«Buxgalteriya hisobi va audit»
kafedrasining majlisida
TASDIQLANGAN
kafedra mudiri
dots. S.M.Sultanova
« 12 » j. 06/12 2015 y.

«BAKALAVR» kvalifikatsiyasi darajasini berish uchun tayyorlanadigan bitiruv ishiga

TOPSHIRIQ

Talaba: BXA-28 guruh talabasi Muxiddinov Sardor Faxriddinovich.

Mavzu: «O'ztemiryo'lkonteyner» AJ korxonasining axborot tizimida moliyaviy hisobot va buxgalteriya ko'rsatkichlarining shakillanishi.

1. Qo'yilgan maqsad.

- 1.1 «O'ztemiryo'lkonteyner» AJ korxonasining axborot tizimida moliyaviy hisobot va buxgalteriya ko'rsatkichlarining shakillanishi tuzilmasini o'rganish bo'yicha nazariy bilimlarni oshirish;
- 1.2. Korxonada ishlab chiqarish xarajatlari buxgalteriya hisobini yuritishni o'rganish;
- 1.3. Korxona xarajatlar tarkibi tahlili asosida xarajatlarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

2. Dastlabki ma'lumotlar.

- 2.1. Korxona Nizomi;
- 2.2. Korxonaning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar 2012-2014 yillar uchun;
- 2.3. Korxona moliyaviy hisobotlari. 2012-2014 yillar;
- 2.4. Korxona bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini xisobga olish schotlari bo'yicha ma'lumotlar 2012-2014 yillar uchun.
- 2.5. Hisob siyosati
- 2.6. Korxonaning xisobati 2012-2014 yillar.

3. Ish mazmuni

Bo'limlarning nomi	Ish hajmi, umumiy hajmdan %	Bajarish muddati
Kirish	5	5.01.2015
I BOB. Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati tahlili	30	
1.1 Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati tavsifi.	15	2.03.2015
1.2 Korxona faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili.	15	
II BOB. Korxona moliyaviy tahlil natijalarining buxgalteriya hisobi	30	
2.1 Korxona daromadlari buxgalteriya hisobi.	15	2.02.2015
2.2 Korxona xarajatlari buxgalteriya hisobi.	15	
III BOB. Korxonada axborot tizimida moliyaviy natijalar tahlil imkoniyatlari	30	
3.1. Korxona moliyaviy natijalar tahlilining turlari.	15	12.05.2015
3.2. Korxonada axborot tizimida moliyaviy natijalarning tahlil imkoniyatlari.	15	
Xulosa va takliflar	5	1.06.2015
Bitiruv malakaviy ishi himoyasi		

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Темир йўл транспорти тўғрисида”ги қонуни.- Тошкент. 15.04.1999 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг Темир йўл транспортига оид қонуний меъёрий ҳужжатлар.
3. Ўзбекистон Республикаси “Бухгалтерия тўғрисида” ги Қонуни.- Тошкент. 1996 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси – Тошкент. 2014 й.
5. “Маҳсулот (ишлар, хизматлар) ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида” Низом Т.:1999, 2004, 2010 й.
6. Жорий йил учун иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш натижалари тўғрисида ва келгуси йилдаги истикбол режалари” 2015 йил январь, Халқ сўзи
7. А.П. Красов. «Бухгалтерский финансовый учет на железнодорожном транспорте» -М.: Транспорт, 2008 г.
8. Бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақалари режаси -Т.:2010 й.
9. А.Каримов, Ф.Исломов, А.Авлоқулов, “Бухгалтерия ҳисоби” - Тошкент.: 2004 й.
10. Э.А.Акрамов, “Қорхоналарнинг молиявий ҳолати” Молия- Тошкент.: 2004 й.
11. Н.И.Силаев “Темир йўл транспорти молияси” - Тошкент. 2004 й.
12. Н.И. Силаев, Ф.К.Абдуллаева “Анализ хозяйственной деятельности предприятий железнодорожного транспорта” - Тошкент.: 2010 г.
13. Вахобов А.А. “Молиявий таҳлил” - Тошкент.: 2005 й.
14. Гулямова Ф.Г. “Самоучитель по бухгалтерскому учёту”- Тошкент.:2008 г
15. В.А Хасанов, А.А.Хасанов. Boshqaruv hisobi. Toshkent,-2013.-20экз.
16. Jo'rayev M.J., Abduvohidov F.T., Sotiboldiyeva D.A. Moliyaviy va boshqaruv hisob. Toshkent., Iqtisod-moliya darslik. 2010yil.
17. S.M. Sultanova, F.K. Turayev., “Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish”. Toshkent.: 2011 yil.

Internet saytlari:

1. www.buhgalteria.ru
2. www.google.ru
3. www.gov.uz
4. www.ziynet.uz
5. www.stat.uz
6. www.lex.uz
7. www.Norma.uz

Bitiruv malakaviy ish rahbari
Bitiruvchi



dots. **Sultanova S.M.**
Muxiddinov S.F.

Topshiriqning berilgan vaqti
Topshiriqning bajarish muddati

« 12 » 12 2014-й.
« 10 » 06 2015-й.

Kirish

XXI asr axborot texnologiyalari asridir. Milliy iqtisodiyotimizning rivojida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish va uning dolzarbligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Axborot to'g'risida"gi qonun, "Elektron tijoratlashtirish to'g'risida" qonun tasdiqlandi, shuningdek "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun asosida bir qancha me'yoriy hujjatlar va dasturlar ishlab chiqildi va bu dasturlarning vazifasi kompyuter va axborot texnologiyalarning ilm-fan va ta'lim sohalariga, milliy iqtisodiyot tarmoqlariga, boshqaruv va biznesga tatbiq etish, shuningdek aholini zamonaviy texnologiyalariga jalb qilish jarayonida sharoitlarni yaratishdan iborat.

Iqtisodiy axborot iqtisodiyotning barcha tarmoqlari tomonidan iste'mol qilinadigan resurs bo'lib, tarmoqlar uchun energiya resurslari va foydali qazilmalar kabi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot tizimlari va axborot-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi bilan inson faoliyatining intellektual va iqtisodiy sohalariga ta'sir qilish boshlanadi. Bu axborot tizimlari va axborot kommunikatsiyalari o'zida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarni turli masalalar bo'yicha mavjud barcha axborot va ma'lumotlar umumlashtirilgan va bir tizimga keltirilgan informatsion resurslardan foydalanish tashkillashtirilgan.

Temiryo'l transporti tarmog'ida "O'zbekiston temir yo'llari" Davlat Aksiyadorlik Temiryo'l Kompaniyasida 2008-2015-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risida" dastur qabul qilingan.

Ushbu dasturda ma'lumotlar uzatish tarmog'ini yaratish maqsad qilib qo'yilgan.

Xozirgi davrda buxgalteriya hisobini yuritilishi bevosita kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq. Buxgalteriya hisobi har bir shakli birlamchi xujjatlarni to'ldirish, qayta ishlash va hisobot shakillarini tuzish bilan yakunlanadi. Shunday qilib, kompyuter hisobi va texnologiyalarini qo'llash natijasida birlamchi ma'lumotlar natijaviy yakuniy ma'lumotlarga aylanadi.

«O'zbekiston temir yo'llari» Davlat Aksiyadorlik Temiryo'l Kompaniyasi «Hisob siyosatiga» binoan buxgalteriya hisobotlarini tashkil etish vazifalariga quydagilar kiradi:

- Korxona faoliyati davrining daromad, xarajat, majburiyat, aktivlarni baholash uchun axborot tizimini yaratish;
- Barcha tuzilmaviy korxonalarda yagona hisob usullarini qo'llash;
- Har xil foydalanuvchi toifalari uchun korxona moliyaviy – iqtisodiy faoliyati tavsifini zaruriy miqdorda ma'lumot tayyorlash;
- «O'zbekiston temir yo'llari» Davlat Aksiyadorlik Temiryo'l Kompaniyasi buxgalteriya hisobi tizimida m'lumotlar bazasini yaxlitligini ta'minlash.

2014yil 4 dekabrda 22.70-sonli Prezident qaroriga muvofiq. 2015 yil 1 yanvardan barcha xo'jalik subyektlar buxgalteriya, soliq, statistika hisobot shakllari elektron tarizda taqdim etilishi joriy qilindi. Shu jumlada «O'ztemiryo'lkonteyner» AJkorxonasida barcha xujjatlar elektron tarizda taqdim etish yo'lga qo'yilgan.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligishunda namoyonbo'ladiki, hozirga kelib har qanday korxona va tashkilotlar o'z faoliyatlarida asosiy rol o'ynovchi xujjatlashtirish ishlarini elektron shakilda amalga oshirmoqda va o'zlarining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarini vakolatli davlat organlariga elektron shakilda taqdim etmoqdalar. Bu kabi faoliyatni amalga oshirish uchun bir qator dasturlar yaratigan, 1С-Предприятие 7.7, 1С - Предприятие 8.2, 1UZ, BEM, UZTO ushbu dasturlarni hozirgi kunda temir yo'l korxonalariga joriy etish eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, «O'ztemiryo'lkonteyner» AJ korxonasining “Axborot tizimida moliyaviy hisobot va buxgalteriya ko'rsatkichlarining shakillanishi” dolzarb bitiruv malakaviy ishining mavzusi tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad «O'ztemiryo'lkonteyner» AJkorxonasidazamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari asosida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilishdir.

Bitiruv malakaviy ishni yuqorida keltirgan maqsaddan kelib chiqqan holdavazifalari yechilgan:

1.Korxonada buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarini yuritish jarayonlarini o'rganildi;

2.Tahlil qilinayotgan korxonadamavjud axborot tizimlari va texnologiyalarini o'rganildi va tahlil qilindi;

3.Buxgalteriya hisobi va hisobotini qayta ishlash texnologiyalarining zamonaviy holati o'rganildi;

4.Temiryo'l tuzilmaviy korxonasida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan tarzda yuritish takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Mavzuni yoritish bo'yichaquyidagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar axborot manbalari sifatida ko'rib chiqilda va o'rganildi:

- "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun;
- Buxgalteriya hisobining milliy andozalari;
- Temiryo'l transportidagi me'yoriy xujjatlar;
- «O'ztemiryo'lkonteyner» AJkorxonasining ustavi hamda 2012-2014 yillardagi statistika, buxgalteriya va moliyaviy hisobotlari.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganish predmeti bo'lib-«O'ztemiryo'lkonteyner» AJ korxonasida elektron dasturlarini tatbiq etish hamda ularning ishchi dasturi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganish obyekti bo'lib- «O'ztemiryo'lkonteyner» AJkorxonasi hisoblanadi. Tahlil qilinayotgan korxona 2009 yildan boshlab "UZTO" buxgalteriya avtomatlashtirish dasturidan foydalanishni yo'lga qo'ygan. Ushbu dasturdan buxgalteriyaning barcha bo'linmalari foydalanadi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob hamda xulosa va takliflardan iborat.

Kirish qismida tanlangan mavzuning nomi, uning dolzarbligi, yakuniy bitiruv malakaviy ishining o'rganish ob'yekti, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari aks ettirilgan.

Birinchi bob «O'ztemiryo'lkonteyner» AJkorxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati tahliliunda tahlili qilinayotgan korxonaningbuxgalteriya hisobini yuritish xususiyatlari va hisobsiyosati,moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikaviy tahlili keltirilgan.

Korxona moliyaviy tahlil natijalari buxgalteriya hisobi deb nomlanadigan ikkinchi bobda «O'ztemiryo'lkonteyner»AJda buxgaltreriya hisobi axborot tizimlarining o'rni va mohiyati,buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining holati va tahlil jarayoni ko'rib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi - «O'ztemiryo'lkonteyner» AJkorxonasi axborot tizimida moliyaviy natijalar tahlil imkoniyatlarinibuxgalteriya hisobi va axborot tizimlarida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari, «O'ztemiryo'lkonteyner» AJda buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash va buxgalteriya hisobi majmuaviy tizimi asosida moliyaviy tahlil qilish jarayoni o'rganiladi.

I BOB. Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati tahlili

1.1 Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati tavsifi

«O'ztemiryo'lkonteyner» aksiyadorlik jamiyati («O'ztemiryo'lkonteyner» AJ) O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 19 noyabrdagi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'grisida»gi qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 3 martdagi 108-sonli va 9 martdagi 119-sonli qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi 2002 yil 28 iyundagi 186 k-Po -sonli buyrug'iga asosan «O'ztemiryo'lkonteyner» sho'ba temir yo'l konteynerlarni tashish korxonasi asosida qayta tashkil etilgan.

Korxonaning ustav fondi aksiyadorlar tomonidan sotib olingan korxona aksiyalarining umumiy qiymatidan tashkil topadi.

Ustav fondining (kapital) qiymati 3 366 271,0 (uch milliarduch yuz oltmish olti million ikki yuz etmish bir ming)so'm miqdorida belgilangan bo'lib, 3 366 271 donaaksiyaga bo'lingan, shu jumladan:

- davlat ulushi - 51 foiz, 1 716 798,0 ming so'm, 1 716 798 dona aksiyaga bo'lingan(«O'zbekiston temir yo'llari» DATKsi aktivlariga qo'shiladigan aksiyalar paketa);
- mexnat jamoasi va «Uzbekistan temir yo'llari» DATK xodimlariga - 10 foiz, 336 627,0 ming so'm, ZD6 627 dona aksiyaga bo'lingan;
- chet el investorlariga - 39 foiz, 1 312 846,0 ming so'm, 1 312 846 dona aksiyaga bo'lingan.

Aksiyalarning nominal qiymati 1000 so'mni tashkil qiladi.

- Oddiy egasi yozilgan: umumiy qiymati 3 366 271 000so'm, 3 366 271 dona.

Korxona yuridik shaxs hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Maxkamasining 05.11.02 yil 37-sonli qaroriga asosan «O'zbekiston temir yo'llari Davlat Aksiyadorlik Temiryo'l Kompaniyasi tarkibiga kiradi va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlar, Temir yo'l Ustavi, boshqa temir yo'ldagi amaldagi normativ dalolatnomalarga va mazkur Ustavga muvofiq ish olib boradi.

Tahlil qilinayotgan korxona o'zining mustaqil balansida xisobga olinadigan aloxida mulkiga egadir, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lish va amalga oshirishi, mas'uliyat olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Korxonao'zi tomondan tasdiqlangan qoidalariga asoslanib ish olib boradigan filial va vakolatxonalar ochishi mumkin.

Korxonaning faoliyat turlari quydagilar hisoblanadi:


- konteyner yuk tashish ishlarini amalga oshirish;
- yuklarni yuklash-tushirish ishlarini tashkil qilish va yuklarni jo'natuvchilarga tijorat operatsiyalarini rasmiylashtirish;
- transport xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;
- yuk tashish ishlari texnologiyasida boshqaruv tizimini avtomatlashtirilishini tadbiq etish;
- transport-ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish;
- bojxona yuklarini tashuvchi sifatida yuklarni bir joydan boshqa joyga ko'chirilishiga doir xizmatlar ko'rsatish;
- bojxona nazorati ostida bir joydan boshqa joyga ko'chiriladigan tovarlar va transportdagi yuklarni saqlash hamda brokerlik operatsiyalarini amalga oshirish;
- yuklarni deklaratsiyadan o'tkazish;
- MDX va Boltiqbo'yi davlatlari xududlari doirasida konteynerlar parkining rejali asosdagi xisobini va ularni o'z vaqtida qaytarilishi nazorat qilinishini amalga oshiradigan tizimini joriy qilishni tashkil etish;

- boshqa davlatlarga tegishli bo'lgan konteynerlar parkidan foydalanish ustidan nazorat yuritish va ularni yurt egasi bo'lgan mamlakatlarga o'z vaqtida qaytarilishini tashkil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi hududidagi boshqa davlatlar daroziegalari ni ngog'irliko'Ichovchiasboblaritizimiustidanidoraviy texnika nazorati yuritilishini amal ga oshirish, ularni montaj qilish, ta'mirlash va texnik xizmatlarni ko'rsatish;
- multimodal tashishlarni tashkil qilish;
- Dalaguzar dezosanstansiyasining ishini tashkil qilish;
- asfaltobitum sexini ishini tashkil qilish, o'z ehtiyojlari uchun asfalt ishlab chiqarish va quyish hamda shartnoma asosida boshqa tashkilotlarga sotish;
- avtotransportlarni joyiga qo'yish, ta'mirlash va texnik xizmatlar ko'rsatish;
- atrof - muhitni muhofaza qilish va ekologik toza texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- ta'mirlash ishlab - chiqarishga joriy qilish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan butlovchi asbob - uskunalar, detallar, ehtiyot qismlarni chet eldan keltirilishi va mahalliy ishlab chiqarilishini rivojlantirib borish;
- xalq iste'moli mollari ni ishlab chiqarish;
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish va sotish;
- transport vositalarining barcha turlari uchun nostandart uskunalar ni loyihalashtirish va tayyorlash;
- qurilish - montaj, qurilish - ta'mirlash, uskunalar bilan qayta jihozlash va boshqa pudrat ishlarini amalga oshirish;
- loyiha - smeta hujjatlarini tayyorlash va ishlab - chiqarish;
- ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- montaj qilish va ishga tushirish - sozlash ishlari;
- maishiy va murakkab elektron hamda orgtexnikaga servis xizmati ko'rsatish;
- kommunikatsion va kompyuter tizimlarini joylashtirish, sozlash, ta'mirlash hamda servis xizmati ko'rsatish;
- tijorat va savdo faoliyati;

- turli xil ishlab chiqarish chiqindilari,ikkilamchi xom - ashyo va maishiy chiqindilarni yarim tayyor mahsulot hamda tayyor mahsulot sifatida yig'ish,sotib olish,qayta ishlash va sotuvga chiqarish;
 - marketing,agentlik va boshqa xizmatlari ko'rsatish;
 - pullik o'qitish kurslarini tashkil qilish;
 - tovar - material boyliklarni yarmarkalar,kimoshdi savdosi orqali bozor
- Tovar aylanmasiga jalb qilish;
- tijorat do'konlarini tashkil qilish va ishlatish;
 - ko'rgazmalar,kimoshdi savdolari va taqdimot marosimlari,tijorat kompaniyalarini tashkil qilish hamda o'tkazish;
 - qishloq xo'jaligi,chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini saqlash,jo'natish va sotuvga chiqarish;
 - umumiy ovqatlanishni tashkil qilish;
 - tashqi iqtisodiy faoliyat.

Korxona buxgalteriya xisob-kitobinitasdiqlangan qonuniy-meyoriy hujjatlari asosida olib boriladi

Konteynerda yuklarni tashish hajmlarini oshirish,ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish,ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda konteynerlar parkini hisobga olishni takomillashtirish va temir yo'l transportida bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida kompaniya boshqaruvi raisining 2000yil 31iyuldagi 143-N-son buyrug'iga asosan konteyner tashish bo'yicha „O'ztemiryo'lkonteyner” davlat korxonasi tashkil etilgan.Korxonaning ustavini tasdiqlashda uning nomi «O'zbekiston temir yo'llari” Davlat Aksiyadorlik Temiryo'l Kompaniyasining konteyner tashish bo'yicha „O'ztemiryo'lkonteyner” sho'ba korxonasi aniqlashtirilgan.Sho'ba korxonaning tarkibiga oltita filiallar: Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Termiz, Qarshi, Nukus filiallari kiradi.1-rasmda «O'ztemiryo'lkonteyner» AJ tuzilmasi keltirilgan.



1 rasmi. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJ korxonasining tuzilmaviy filiallari.

Korxona ustavida korxonani moliyalashtirishning manbalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- «O‘TY» DATYKning pul mablag‘lari, moddiy va boshqa badallari;
- mahsulot, ishlar, xizmatlarni sotishdan hamda xo‘jalik faoliyatining boshqa turlaridan olingan daromadlar;
- qimmatli qogozlardan olingan daromadlar;
- banklarning va boshqa yuridik shaxslarning kreditlari;
- kapital qo‘yilmalar, byudjetdan qo‘shimcha to‘lovlar;
- beg‘araz va hayriya badallari, boshqa manbalar.

Korxona faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risida»gi, «Temir yo‘l transporta to‘g‘risida»gi Qonunlariga, boshqa qonun hujjatlariga, korxona ustaviga, «O‘TY» DATYK ning buyruqlariga, ko‘rsatmalariga va farmoyishlariga rioya qiladi.


Asosiy faoliyatning boshqa korxonalari bilan barcha moliyaviy o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va DATYK Davlat tomonidan tasdiqlangan. Asosiy faoliyat korxonalarining hisob-kitob siyosati to‘g‘risidagi nizomga asosan tartibga solinadi.

Korxonada buxgalteriya xizmatichiziqishaklda tashkiletilgan. Barcha buxgalterlarbevosita boshbuxgalterga bo‘ysunadi. SHutarzda, harbirbuxgaltero‘zuchastkasibo‘yicha hisobyuritadiva uchastka bo‘yicha javobgarhisoblanadi.

Buxgalteriyatarkibida, bitta boshbuxgaltero‘rinbosari, etakchibuxgalter, kassir, ikkita ishhaqibo‘yicha buxgalter, uchta tovarmoddiyzahira (TMZ) bo‘yicha buxgalter, bank operatsiyalaribo‘yicha buxgalter, xaridorlarbilanhisob – kitoblarbo‘yicha buxgalterlarmavjud.

Buxgalteriyahisobiishlabchiqarishda xarajatlarhisobi, omborhisobihamda moliyaviymenejmentbilanuzviybog‘liqdir. Buxgalteriyahisobida moliyaviy operatsiyalarbirlamchi xujjatlar asosida buxgateriyao‘tkazmalari orqali amalga oshiriladi.

Korxonaning integrallashgan axborot funksional tizimi, quyidagi 1-chizmada aks ettirilgan bir nechta funksional tizimlari yig'indisidan iborat.



1-chizma. Korxonaning integrallashgan axborot tizimlarining funksional tarkibi.

1-chizmadanki o'rinib turganidek, korxonada xujjatlar aylanmasi korxonada mavjud bir nechta funksional bo'linmalari o'rtasida amalga oshiriladi. Buning o'z navbatida, buxgalteriya hisobini integrallashgan tizimga (BHIT) qo'shimcha

talablarquyadi.

ShuninguchunhamBHITbarcha

buxgalteriyahisobima'lumotlarinito'liqva sifatli aksetirishimuhim.

Buxgalteriyahisobiikkiyoqlama yozuv asosida, korxona hisobsiyosatining 1 – ilovasi “Buxgalteriyahisobiningishchischyotlarrejasi” ga asosan yuritiladi.

Korxonada buxgalteriyahisobi avtomatlashtirilganusulda, “UZTO” dasturida amalga oshiriladi.

Korxona 2009 yildanbuyon “UZTO” amaliydasturidanfoydalanibkeladi. Buxgalteriyahisobining asosiyvositalarva nomoddiy aktivlarhisobi, tovar-modddiy zaxiralarhisobiuchastkalari avtomatlashtirilgan. Harbir xodimdasturga o'zio'rnatganparol orqalikiradiva o'zuchastakasida hisoblarni amalga oshiradi.

Korxonada buxgalteriyahisobini avtomatlashtirishyordamida hisob axborotlariniishlabchiqishbirlamchi, boshqaruvva moliyaviyhisobninguchta bosqichida olibboriladi (2 – chizma). Harbirbosqichda hisob axborotlariniyig'ish, ro'yxatga olish, ishlabchiqishninguslubiyotiga muvofiqiqtisodchi, moliyachi, hisobchiva tahlilchilarningo'zaro bog'langan avtomatlashtirilganishjoylari (AIJ) yaratiladi.

Ma'lumotlarniishlabchiqishuchun AIJnibevosita hisobninghar xilbosqichlaribo'yicha mutaxassislarningishjoylarida qo'llanishiqog'ozmanbalaridanengkamfoydalanishni, axborotlarniishonchliligiva to'liqliginita'minlaydi.AIJvazifaviyuchastkalarbo'yicha tashkilqilingan, ulardanharbiriyoqibirlamchihisob (materiallar, tayyormahsulotlar, tabellihisob) bilanyoki xo'jalik operatsiyalari, (moddiyboyliklar, asosiyvositalarva nomoddiy aktivlar, mehnatva ishhaqi, moliyaviy-hisoblash operatsiyalari, tayyormahsulotlarva ularnisotishninghisobibo'yicha) uzluksizro'yxatga olishva ishlabchiqish amalga oshiriladiganbuxgalteriyahisobiningbelgilangan ob'ektlaribilan, hamda yig'ma hisobva hisobotlarnituzish, rejalashtirishza tahlilqilish, hamda ichki auditbilanbog'langan.

Uchastkalarni ajratishda shuni hisobga olish kerakki, har bir uchastka quyidagi talablarga javob berish kerak:

- o'zining xo'jalik operatsiyalari va majmuasiga ega bo'lishi;
- o'zining boshqa uchastkalar bilan tutashuvchi schyotlarining ko'plab rejalariga ega bo'lishi;
- o'zining, faqatunga xos bo'lgan, birlamchi xujjatlar va hisobot shakllariga ega bo'lishi.

Birinchibosqich (birlamchi hisob) da birlamchi hisobni olib boruvchi xodimlarning AIJ yordamida korxonaning ishlab chiqarish xo'jalik bo'linmalari (tsex, ombor va bo'limlar) da vujudga keladigan birlamchi axborotlarni yig'ish, ro'yxatga olish, jamlash va qisman ishlab chiqish bajariladi. Ushbu bosqichda moddiy boyliklarning hisobi, tabel hisobini olib borish va ombordagi tayyor mahsulotlarning hisobi bo'yicha AIJ faoliyati yuritadi.

Har bir uchastkada olingan natija beruvchi ma'lumotlar modern aloqa asosida ikkinchibosqich boshqaruv hisobi ga kelib tushadi, u qo'lme'nat talab qiluvchi operatsiyalar, hamda hisob nomenklaturalarining katta hajmi bilan ta'riflanadi. Ushbu bosqichda birlamchi hujjatlarining ma'lumotlar va quyibosqichdanelektron pochta orqali olingan axborotlar ro'yxatga olinadi va sintetik hamda tahliliy schyotlar tizimida guruhlar ga ajratiladi. Buning uchun xo'jalik mablag'larining qoldiqlari va ularning manbalarini haqidagi ma'lumotlar, har xil hisob qaydnomalarida aks ettiriladi.


Ikkinchibosqichda (moddiy boylik, asosiy vosita va nomoddiy aktivlar, mehnat va ish haqi moliyaviy hisoblash operatsiyalari, tayyor mahsulotlar va ularni sotilishi, ishlab chiqishiga xarajatlarning hisobi bo'yicha) AIJlar faoliyati yuritadi. U korxonaning barcha xo'jalik operatsiyalarini qiymat bahoda, buxgalteriy yozuvlarining fayllari ko'rinishida aks ettiriluvchi natija beruvchi ma'lumotlarni shakllantiradi. Bu axborotlar ma'lumotlarni ishlab chiqishning yuqori roquchibosqichi, moliyaviy hisobga uzatiladi, u erda yig'ma hisob, moliyaviy tahlil va rejalashtirish hamda

ichki auditning AIJ tashkil qilinadi. Yig'ma hisobning AIJ yordamida pastki bosqichlardan aloqa kanallaribo'yicha kelib tushuvchitahliliyva sintetik hisobma'lumotlari asosida bosh kitob, buxgalteriyabalansi, moliyaviy natijalar haqidagi hisobotva sintetik tahliliy hisobning boshqa hisobqaydnomalarishakllanadi.

Moliyaviy tahlilva rejalashtirish AIJ qarorlar qabul qilish uchun tahliliy axborotlarnishakllantirish, hamda rahbariyatga tezkor axborotlar berishga imkon beruvchi moliyaviy tahlilva rejalashtirish nita'minlaydi. Bunday axborotlarni tannarx, foyda ko'rsatkichlari, hisob-kitoblarva boshqa buxgalteriyayozuvlarining holati, debitorlikva kreditorlik qarzdorliklari, turli xildagi iqtisodiy ko'rsatkichlar, tahlilning natijalari, bashoratlar, xodimlar haqidagi ma'lumotlar kiradi. Bunday axborotlarni vaqtning istalgan paytida so'rov bo'yicha olish mumkin.

Ichki auditorning AIJ buxgalteriya andozalaridagi o'zgarishlarni kuzatishga, xo'jalik vaziyatlariva qonunchilikni tahlil qilishga, hisobsiyosati, xarajatlarni tartibga solishva investitsion siyosatini ratsional qurish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, soliqlarni rejalashtirishni amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, umuman moliyaviy hisobning ma'lumotlaridan korxona iqtisodiyotini rejalashtirishva bashorat qilishda, moliyaviy menejmentda, korxonaning barcha axborotlarining iqtisodiy tahlilida foydalaniladi. BHA Tni optimal faoliyat yuritish natijada rahbariyatga qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ob'ektivva tezkor ma'lumotlar shakllanadi. Bu qaror moliyaviy muvozanatni saqlashga, bozor sharoitlarida barqaror foyda va yuqori rentabellikka erishish uchun ishlab chiqarishva tijorat faoliyatining eng samarali yo'nalishlarini tanlashga imkon beradi. 2-chizmada korxonadagi BHA T da hisobning bosqichlari bo'yicha AIJ ning o'zaro aloqalari va taqsimlanishi ko'rsatib o'tilgan.



2-chizma. Korxonadagi BHATda hisobning bosqichlari bo'yicha AIJning o'zaro aloqalari va taqsimlanishi

1.2 Korxona faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili

“O'ztemiryo'lkonteyner” AJ korxonasi ijtimoiy-iqtisodiy dasturning bajarilishi bo'yicha 2013 yilning 12 oylik yakunlari bo'yicha barcha asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minladi.

1.1-jadval

«O'ztemiryo'lkonteyner» AJ korxonasining asosiy faoliyat ko'rsatichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012 yil. Hisobot	2013 yil			2012 yilga nisbatan 2013yilda %
			Reja	Hisobot	%	
Konteynerga yuklangan yuklar	Ming tonna					
Yuklarni ortish tushirish umumiy hajmi	Ming tonna					
O'rtacha sutkalik vagonlardan yuklarni tushirish	Vagon					
O'rtacha sutkalik vagonlardan yuklarni ortish	Vagon					
Aholiga pullik xizmat ko'rsatish	Ming so'm					
Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish	Ming so'm					

Keltirilgan jadval asosida yuklarni ortish-tushirish umumiy xajmi reja bo'yicha 3 mln. 850 ming tonna bajarilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich amalda 3 mln. 998,6 ming tonna miqdorida bajarildi. Bu ko'rsatkich rejaning 104 % ga bajarilishini ta'minladi, hamda o'tgan yildagi 3 mln. 667 ming tonna miqdoridagi ko'rsatkichga nisbatan 331,6 ming tonnaga yoki 9% ga o'sdi. Bundan 443,5 ming

tonna qadoqlangan qopli yuklar, 556,4 ming tonna ogir yuklar, 2 mln 922,4 ming tonna konteynerdagi yuklar va 66,3 ming tonna to'kib ortilgan yuklarni tashkil qiladi.

Yuklarni ortish-tushirish ko'rsatkichi filiallar bo'yicha quyidagichadir:

1. Toshkent filiali bo'yicha jami 2 mln 973 ming tonna: bundan 390 ming tonna qadoqlangan qopli yuklar, 172 ming tonna ogir yuklar, 2 mln 358 ming tonna konteynerdagi yuklar va 53 ming tonna to'kib ortilgan yuklarni tashkil qiladi;

2. Farg'ona filiali bo'yicha jami 81 ming tonna: bundan 13 ming tonna Og'ir yuklar, 63 ming tonna konteynerdagi yuklar va 5 ming tonna to'kib ortilgan yuklarni tashkil qiladi;

3. Buxoro filiali bo'yicha jami 734 ming tonna: bundan 5 ming tonna qadoqlangan qopli yuklar, 315 ming tonna og'ir yuklar, 414 ming tonna konteynerdagi yuklarni tashkil qiladi;

4. Qarshi filiali bo'yicha jami 16 ming tonna: bundan 10 ming tonna og'ir yuklar, 6 ming tonna konteynerdagi yuklarni tashkil qiladi;

5. Termez filiali bo'yicha jami 90 ming tonna: bundan 46 ming tonna qadoqlangan qopli yuklar, 11 ming tonna og'ir yuklar, 26 ming tonna konteynerdagi yuklar va 8 ming tonna to'kib ortilgan yuklarni tashkil qiladi;

6. Nukus filiali bo'yicha jami 104 ming tonna: bundan 2 ming tonna qadoqlangan qopli yuklar 47 ming tonna og'ir yuklar 54 ming tonna konteynerdagi yuklarni tashkil qiladi;

Bajarilgan ishlar natijasiga ko'ra yuklarni konteynerlarga ortish ko'rsatkichi 410,4 ming tonnani tashkil etdi, bu rejada ko'zlangan maqsadning 81% ga tushganligini, hamda o'tgan yilga nisbatan ham 15 % ga kamayganligini ko'rsatdi.

O'rtacha sutkalik vagonlardan yuklarni tushirish ko'rsatkichi 163 vagonni tashkil etdi, bu rejadagi 141 vagon miqdoridagi ko'rsatkichning 116 % bajarilishiga olib keldi va o'tgan yildagi 128 vagon ko'rsatkichining 27 % o'sishini ta'minladi.

O'rtacha sutkalik vagonlarga yuklarni ortish ko'rsatkichi 67 vagonni tashkil

etdi, bu rejadagi 83 vagon miqdoridagi ko'rsatkichning 81 % tashkil etdi va o'tgan yildagi 81 vagon ko'rsatkichiga nisbatan 83% ga tushganligini ko'rsatdi.

Aholiga pullik xizmat ko'rsatish 211 mln 678 ming so'mni tashkil etdi, bu esa rejadagi 210 mln.so'm miqdoridagi ko'rsatkichning 101 % ga bajarilishiga olib keldi. O'tgan yildgi ko'rsatilgan yillik xizmatlar miqdori 194 mln 718 ming so'mni tashkil etdi va bu o'z navbatida hisobot davrida 16mln. 960 ming so'mga yoki 9 % ga oshdi.

1.2-jadval

«O'ztemiryo'lkonteyner» AJkorxonasiningMehnatunumdorligiko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012 yil. Hisobot	2013 yil			2012 yilga nisbatan 2013yilda %
			Reja	Hisobot	%	
Ishchilarning umumiy ro'yxat	Kishi					
Shu jumladan: yuklab tushirish ishchilari	Kishi					
Yuklab tushirish ishlaridagi mehnat unumdorligi	тонн на 1 чел					
Ish haqi fondi	Ming so'm					
O'rtacha ish haqi	So'm					

Mehnatunumdorligi 1 kishiuchun 22 ming 849 tonnanitashkilettdi, buesao'tganyilgi 19 ming 929 tonnamiqdoridaginatijaning 15 % gao'sishiggolibkeldi. Hamdarejadagi 20 ming 699 tonnamiqdorining 110 % gabajarilishinita'minladi.Ishchilarningumumiyyro'yxatdagio'rtachasonihisobot davrida 736 tanitashkilettdi. 2012 yildabuko'rsatkich 751 tanitashkilqilgan.

Ya'nio'tgaiyilganisbatanbuko'rsatkich 98 % nitashkilettdi.

O'rtachaoylikishhaqi 955 ming 3 so'mnitashkilqildi, o'tganyildagi 791 ming 134 so'mganisbatan 21 % gao'sdi.Xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonada 6 kishidan iborat kasanachilik ish o'rinlari tashkil etilgan. Hozirgi kunda korxona uchun maxsus kiyimlar bilan ta'minlab kelmoqda. Jumladan xalat, x/b kostyum, signal jiletlari va qo'lqoplar korxona ehtiyojlari uchun tikib topshirildi. Hisobot davrida 36 mln.so'm miqdorida maxsulot ishlab chiqarildi.

1.3-jadval

«O'ztemiryo'lkonteyner» AJkorxonasiningmoliyaviyfaoliyatko'rsatichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012 yil. Hisobot	2013 yil			2012 yilga nisbatan 2013yilda %
			Reja	Hisobot	%	
Daromad	Ming so'm					
Xarajat	Ming so'm					
Foyda	Ming so'm					

Yuqoridagi 1.3-jadvalda ko'rsatgichlarga muvofiq hisobotdavrida 55 mlrd. 934 mln.so'mmiqdoridadaromadolindi, buesao'znavbatidakorxonagaqo'yilgan 42 mlrd. 621 mln.so'mmiqdoridagirejaning 131% gabajarilishinita'minladi. O'tganyildaolingan 44 mlrd. 229mln.so'mmiqdoridagidaromadganisbatan 26 % gao'sganiniko'rsatadi.

Shuningbilanbirqatordaxarajatlar 35 mlrd.913 mln.so'mnitashkilettdi, buko'rsatkichesarejadagi 32 mlrd. 374 mln.so'mmiqdoridagirejaning 111% tashkilqilganiniko'rsatdi, hamdao'tganyildagi 29 mlrd. 642 mln.so'mmiqdoriganisbatan 6 mlrd. 271 mln.so'mga, ya'ni 21 %

gao'sganiniko'rsatadi.

Hisobot davrida Foyda olish 10 mlrd. 247 mln.so'm rejalashtirilgan bo'lib, amalda olingan foyda 20 mlrd. 21 mln.so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich rejaning 195 % ga bajarilganligini va o'tgan yildagi 14 mlrd.587 mln.so'm miqdoridagi foydaga nisbatan 5 mlrd.433 mln.so'mga yoki 37% ga o'sganligini ko'rsatadi.

2013 yilning 12 oylik qora metall topshirish bo'yicha reja 846 tonna bo'lib, hisobot davrida 853,165 tonna miqdorida topshirildi, bu esa qo'yilgan rejaga nisbatan 7,165 tonna oshig'i bilan topshirilganligini ya'ni rejaning 101 % ga bajarilganini ko'rsatadi. Rangli metall topshirish rejasi 500 kg bo'lib, bu topshiriq 611 kg miqdorida bajarildi. Bu esa hisobot davridagi rejaning 111 kgga ko'p topshirilganini yoki rejaning 122 % ga bajarilganini ko'rsatadi.

2013 yilning 12 oyligi uchun qog'oz chiqindilarini (makulatura topshirish rejasi 1000 kg berilgan bo'lib, bu topshiriq 100 % ga bajarildi.

Asfalt-beton zavodi(ABZ)ning ABZ da hisobot davrida yirik donali asfalt 635 tonna miqdorida, hamda mayda donali asfalt 5550,8 tonna miqdorida, jami 6185,8 tonnamiqdorida 729,6 mln.so'mga asfalt ishlab chiqarildi. Asfalto-beton zavodi hammasi bo'lib 66 923,3 m² maydonni asfalt qildi.

Tarozi xo'jaligi bo'yicha jami olingan daromad 630,6 mln.so'mni tashki etdi. Jumladan: 200 tonnali vagon tarozilarini o'rtacha ta'mirlashda 7,7 mln.so'm miqdorida, 150 tonnali vagon tarozilarin o'rtacha ta'mirlashdan 379,8 mln.so'm miqdorida, 150 tonna vagon tarozilarini joriy ta'mirlash 98 mln.so'g miqdorida, 150 tonnali vagon tarozilarini ko'rik tekshirishidan 117,7 mln.so'm miqdorida, 150 tonnali elektron vagon tarozilari o'rtacha ta'mirlashdan 3,6 mln,so'm va 150 tonnali elektron vagon tarozilarini ko'rik tekshirishidan 23,7 mln.so'm miqdorida daromad olindi.

Yuridik masalalar bo'yicha hisobot davrida turli yo'nalishlarda 980 ta

shartnoma, shartnomalarga 128 ta qo'shimcha kelishuvlar tuzilgan, hamda 22 ta shartnoma tegishli tartibda bekor qilingan. Shartnomalar tuzilishi bo'yicha 18 ta ishchi komissiya bayonnomasi tuzilgan. Yuridik bo'lim nazoratida bo'lgan shartnomalar (ijara) yuzasidan 2013 yilda o'tkazilgan koordinatsiya dalolatnomasida, hamda Toshkent transport prokuraturasi o'tkazgan tekshiruv ma'lumotnomasida hech qanday kamchiliklar aniqlanmaganligi ko'rsatilgan.

II BOB. Korxona moliyaviy tahlil natijalarining buxgalteriya hisobi

2.1 Korxona daromadlari buxgalteriya hisobi

Daromad – bu korxonaning ishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib, u korxona byudjetini shakllantirishda asosiy manbalardan biridir. Daromadning bir qismi korxonaning o'zida qolib ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlantirishga yo'lantiriladi. Moliyaviy natijalarni hisoblash va aniqlash uslublari temir yo'lining hisoblash siyosatiga ko'ra o'rnatiladi. Korxonada buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari quyidagilar:

- 1) to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishni nazorat qilish;
- 2) xujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish;
- 3) xujjatlarni haridorlarga o'z vaqtida taqdim qilish;
- 4) debitor qarzlarni o'z vaqtida undirish;
- 5) kreditor qarzlarni o'z vaqtida to'lash.

Korxonada asosiy faoliyatning daromadlari tarkibi quyidagicha:

- yuklash-tushirish ishlarini tashkil qilish va yuk hovlilari va konteyner maydonlariga tushirilgan konteynerlardagi yuklarga tijorat operatsiyalarini rasmiylashtirish;
- yuk jo'natuvchilarga va yukni qabul qilib oluvchilarga yuqori sifatli xizmatlarni ta'minlash, yuk tashish qo'shimcha hajmlarini ajratib berish, jumladan transportda xizmat ko'rsatish majmuasini - jo'natuvchilar

buyurtmalarini rasmiylashtirishdan qabul qiluvchilargacha yukni yetkazib berish - joriy etish asosida transportning boshqa turlarini jalb etish;

- transport xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini olib borish;
- mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirish;
- transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko'rsatish;
- bojxona anazoratidan o'tuvchi tovarlarni va tashilayotgan yuklarni saqlash va ular bo'yicha brokerlik operatsiyalarini amalga oshirish;
- yuklarni deklaratsiya qilish va boshqalar.

Bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida xo'jalik tijorat faoliyatiga mo'ljallangan «O'ztemiryo'lkonteyner» AJni tashkil etish yuklash-tushirish va boshqa ishlarni samarali tashkillashtirishda, yuklarni konteynerlarda tashish hajmlarini oshirishda, ko'rsatilayotgan xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlashda tashabbuslarni ko'rsatishga keng imkoniyatlar ochadi. «O'ztemiryo'lkonteyner» korxonasining moliyasini o'zining filiallari bilan, mehnat jamoasi bilan munosabatlarida tashkil etishda moddiy rag'batlantirishni yaratishga, ishlar va xizmatlarni bajarish sifati uchun javobgarligini oshirishga, yuk tashish bilan bog'liq xizmatlar bozorini doimiy o'rganishga, ish (xizmat)larning ayrim turlarining haddan tashqari yuqori rentabelligini, ularning raqobatbardoshligini pasaytirishni, realizatsiya hajmlarini oshirishga to'sqinlikni istisno qiluvchi narxni shakllantirish takomillashtirish.

„O'ztemiryo'lkonteyner” AJ korxonasida daromadlar quyidagi schyotlarda hamda 2.1-jadvalda hisobga olinadi:

9030 - „Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar”

9032 - „Konteynerlardan foydalanganlik uchun daromadlar”

9033 - „Mahalliy yetkazib berishdan daromalar”

9034 - „Tarozi xo'jaligi daromadlari”

9035 - „Chetga yetkazib berishdan daromadlar”

9036 - „Hududni asfalt qilishdan daromadlar”

9037 - „Boshqa daromadlar”

9038 - „Aholiga xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar”

9039 - „Bojxona yuklari saqlashdan daromadlar”

9310 - „Asosiy vositalar chiqimidan olingan foyda”

9320 - „Boshqa aktivlarning chiqimidan olingan foyda”

9330 - „Undirilgan jarima,penya va ustamalar”

9340 - „O‘tgan yillar foydalari”

9350 - „Qisqa muddatli ijaradan daromadlar”

9351 - „Konteyner ijarasidan daromadlar”

9352 - „Mexanizmlar ijarasidan daromadlar”

9360 - „Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar”

9390 - „Boshqa operatsion daromadlar”

9620 - „Dividend ko‘rinishidagi daromadlar”

9630 - „Foiz ko‘rinishidagi daromadlar”

9640 - „Valyuta kurslari farqidan daromadlar”

2.1. jadval

„O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ korxonasida daromadlarning sintetik hisobi

Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni	debet	kredit	Summa (so‘m)
Tashishdan daromad olindi			

Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga ko'rsatilgan ish va xizmatlar			
Undirilgan jarima va penyalar			
Boshqa korxonalar aksiyalarini sotib olinganligi uchun dividendlar			
Aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar			
Foiz ko'rinishidagi daromadlar			
Valyuta kurslari farqidan daromadlar			

D-t 9030		K-t	D-t 9330		K-t	D-t 9520	
K-t							
		150080000					32560000
50600000		365000000					
		15600000					32560000
50600000							
		530680000					
D-t 9530		K-t	D-t 9540		K-t		
		10350000			11564000000		
		10350000			11564000000		

2.1.-chizma. Xo'jalik operatsiyalarini schotlarga tarqatilishi

2.2 Korxona xarajatlari buxgalteriya hisobi

Har kanday faoliyatni amalga oshirish uchun turli xarajatlar qilinadi jumladan temiryul kompaniyasi xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun sarflaydigan xarajatlari quydagicha guruxlanadi:

1) Maxsulot tanarxiga qo'shiladigan xarajatlar

2) Maxsulot ishlab chiqarish tanarxiga qo'shilmaydigan lekin davr xarajatlari moliaviy faoliyat boyicha xarajatlar tarkibiga qo'shiladigan xarajatlar.

3) Favquloti zararlar.

Maxsulot (ish xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxi ishlab chiqarish jarayonida sarflanadigan material yoqilg'i energiya asosiy vositalar mehnat resurslari va ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan tashkil topadi. Ishlab chiqarish tanarxiga faqat ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Noishlab chiqarish xarakteridagi sotish boshqaruv va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar maxsulot ishlab chiqarish tanarxiga kiritilmaydi.

Maxsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi tog'risidagi Nizomga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan bevosita va belvosita modiy xarajatlar bevosita va belvosita mexnat xarajatlari, boshqa bevosita va belvosita xarajatlar, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlari kiradi.

Barcha yuk tashish va tijorat ishlari bilan bog'liq xarajatlar, manyovr ishlaridagi poezdlarni qabul qilish va jo'natish ishlari bilan bog'liq xarajatlar butunlay tashish tannarxiga kiritiladi va bevosita xarajatlar deyiladi.

Bevosita xarajatlarga yo'l xo'jaligi xarajatlari, signalizatsiya aloqa va hisoblash texnikasi, elektirlashtirish va energiya ta'minoti xo'jaliklari xarajatlarining katta qismi kiradi. Tashish tannarxi aniqlanayotganda bu xarajatlar tashish turga qarab proporsional taqsimlanadi.

Maxsulot ish xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini xosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quydagi elementlarga guruxlanadi:

- 1) Ishlab chiqarish modiy xarajatlari
- 2) Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga xaq to'lash xarajatlari
- 3) Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari
- 4) Asosiy fondlar va ishlab chiqarish axamiyatiga ega bo'lgan nomodiy aktivlar amortizatsiyasi

5) Ishlab chiqarish axomiyatiga ega bulgan boshqa xarajatlar

Davr xarajatlari deganda, bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi. Bularga boshqaruv xarajatlari, sotish buyicha xarajatlar va boshqa umum xo'jalik xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar operatsion xarajatlar deb ham ataladi.

Boshqaruv xarajatlarini quydagilar tashkil etadi:

1) Boshqaruv xodimlariga mexnatiga xaq to'lash va ijtimoiy sug'urti bo'yicha ajratmalar

2) Yengil avtomobil va mikroavtobuslarni saqlash va ijaraga olish

3) Korxonani tashkil kilish va boshqarish xarajatlari

4) Boshqaruv binolarini tamirlash va amortizatsiya xarajatlari

5) Xalqaro va shaxarlararo telefon aloqalar uchun to'lovlar

6) Texnik vositalarni saqlash va ularga xizmat ko'rsatish va boshqa xarajatlar kiradi

Sotish bo'yicha DATK xarajatlariga bozorni o'rganish xarajatlari (reklama, marketing) va boshqa sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi.

Boshqa operatsion xarajatlarni temir yo'l transportining kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun, konsultatsiya va axborot xizmati uchun xarajatlar va auditorlik xizmati uchun to'lovlar mukofot, moddiy yordam, mulk sotish bo'yicha zararlar, sog'liqni saqlash va sog'lomlashtirish lagerlarini saqlash xarajatlari byudjetga majburiy to'lovlar (mulk solig'i, ekologiya solig'i) shtraf, peniya va boshqa xarajatlar tashkil etadi. Davr xarajatlarining 80%-ni boshqa operatsion xarajatlar tashkil etadi.

Moilaviy faoliyat bo'yicha xarajatlariga quydagilar:

1) Qisqa va uzoq muddatli bank kreditlari uchun to'lovlar

2) Mol mulkni uzoq mudatga ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarini to'lash xarajatlari

3) Chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar

4) Sarflangan mablag'larni qayta baxolashdan ko'rilgan zarar

5) O'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va saqlash bilan bog'liq xarajatlar

6) Moiliaviy faoliyat bo'ycha boshqa xarajatlar

Favqulotda zararlar - xo'jalik yurutuvchi sub'ektlardan odatdagi faoliyatidan chetga chiqaruvchi xodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutulmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Favqulodda zararlar quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

1. Korxonaning odatdagi faoliyatiga mos emaslik
2. Bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi
3. Boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlariga bog'liq bo'lmasligi kerak

Temir yo'l kompaniyasi asosiy faoliyati boyicha xarajatlari ish turiga qarab tashish va yordamchi – ko'makchi faoliyat bo'yicha xarajatlarga bo'linadi. Bevosita yuk va yo'lovchi tashish bilan bog'liq xarajatlar ekspluatatsion xarajatlar deyiladi.

Xarajatlarning tarkibi ham o'zining xususiyatlariga ega.

Xarajatlar tarkibi quyidagilarni ko'rsatadi: ish haqi barcha xarajatlarning deyarli yarmiga to'g'ri keladi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarni hisobga olgan holda esa - yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. Bundan kelib chiqadiki, ish (xizmat)larni bajarish tannarxini pasaytirishning va rentabelligini oshirishning asosiy yo'li - korxonaning mehnat resurslarini samarali ishlatish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish.

Xarajatlarning uchdan bir qismini soliqlar, yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni o'z ichiga oladigan boshqa xarajatlar guruhi tashkil etadi.

AJning boshqa operatsion xarajatlarning muhim xususiyati - jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqni qo'shgan holda boshqa barcha soliqlar va to'lovlarning summasidan deyarli ikki barobar oshadigan yer solig'ining katgaligi. U AJning tashish va yordamchi-ko'makdosh faoliyatning barcha xarajatlari summasining 22%dan ortiqrog'ini tashkil etadi. Bu AJ bo'linmalariga berilgan yer uchastkalarini optimal darajada ishlatishga: bo'sh uchastkalarni ijaraga berish yoki bu soliq bo'yicha yukni pasaytirish yo'llarini qidirishga majburlaydi.

Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000)

Korxonaning asosiy faoliyat turi hisoblangan mahsulot (ish, xizmat)lar, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotida amalga oshiriladi.

Oldindan (ijara, abonent to'lovi va h.k.) yoki keyingi davrlardagi (hisobdor summasining ortiqcha xarajatlari uchun to'lovlar va boshqalar) - korxona xarajatlari mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga ularning to'langan muddatidan qat'i nazar - qaysi davrga taalluqli bo'lsa o'sha hisobot davrida kiritiladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining debeti bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar shuningdek, Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar va yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga ishlab chiqarish zaxiralari, mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining kreditidan hisobdan chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga 2510 "Umumiy

ishlab chiqarish xarajatlari" schyotidan hisobdan chiqariladi.

Yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga 2610 "Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar" schyotidan hisobdan chiqariladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining kreditida tugallangan mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarishning haqiqiy tannarx summolari aks ettiriladi. Ushbu summalar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotidan 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar", 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi", 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi" schyotlarining debetiga hisobdan chiqarilishi mumkin.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko'rsatadi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha yuritiladi. Xarajatlarning yozaga kelish joylari va boshqa belgilari bo'yicha guruhlanishi shuningdek, kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini har bir korxona o'zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo'yicha guruhlanishi hamda kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining analitik hisobi ham korxonaning alohida bo'linmalari bo'yicha yuritiladi. 2.2- jadvalda asosiy ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (2000)ning bog'lanishi ko'rsatib o'tilgan.

Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da qatnashadigan asosiy vositalarning eskirishi		
2	Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishga taalluqli bo'lgan nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi		
3	To'g'ri material xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishga hisobdan chiqarildi		
4	Chorvachilik mahsulotini olish uchun hayvonlarni so'yish (hayvonlar qiymati)		
5	Materiallar qiymatidagi farq tegishli ulushlarda asosiy ishlab chiqarishga hisobdan chiqarildi		
6	O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash uchun asosiy ishlab chiqarish tsexlariga chiqarish		
7	Yordamchi tsexlarning xarajatlarini asosiy ishlab chiqarishning mahsuloti va xizmatlari tannarxiga kiritish		
8	Umumishlabchiqarish xarajatlarining asosiy ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlarining tannarxiga kiritilishi		
9	Yaroqsiz mahsulotlar hisobiga yo'qotishlar asosiy ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlarlari tannarxiga kiritildi		
10	Ilgari kelgusi davr xarajatlari sifatida aks ettirilgan xarajatlarning tegishli ulushi mahsulot tannarxiga olib borildi		
11	Kirim qilingan tayyor mahsulotning ombordan tsexlarga qayta ishlash va hokazo uchun qaytarilishi		
12	Tovarlar qayta ishlashga berildi		
13	Ishlab chiqarish uchun bevosita tsexlarga kelib tushadigan moddiy qiymatliklar va xizmatlar olindi		
14	Qondirilmagan da'volar summasi asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlarining tannarxiga kiritildi		
15	Asosiy ishlab chiqarishdagi sug'urta xarajatlari		
16	Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar		
17	Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to'lash bo'yicha summalar hisoblandi		
18	Hisobdor shaxslar tomonidan amalga oshirilgan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari		
19	Asosiy ishlab chiqarish tsexlariga turli korxonalarga ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzarlar		
20	Ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik		

	jamiyatlarining asosiy ishlab chiqarish ehtiyojlarga qilgan xarajatlari		
21	Asosiy tsexlarda aniqlangan tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchalari kirim kilindi		
22	Materiallarning asosiy ishlab chiqarishdan qaytarilishi; o'zida ishlab chiqarilgan materiallar, shuningdek qaytariladigan chiqindilarning kirim qilinishi		
23	Hayvonlarni o'stirish va bo'rdoqiga boqish bo'yicha joriy xarajatlarning xayvonlar tannarxiga (o'sish va ortgan vaznning) kiritilishi; hayvonlar naslining aks ettirilishi		
24	Tugallanmagan mahsulotni qayta baholash: a) qiymatining oshirilishi b) qiymatining kamaytirilishi		
25	O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar operatsiyalararo omborlarga kirim qilindi (yarim tayyor mahsulot holida)		
26	Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan to'g'rilanmaydigan yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar hisobdan chiqarildi		
27	Mahsulotni xaqiqiy tannarx bo'yicha ishlab chiqarish		
28	Savdo va ta'minot korxonalarida o'zida ishlab chiqargan tovarlarning (qayta ishlashdagi va xokazo) kirim qilinishi		
29	Asosiy tsexlarda bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatlarning sotilishi; tugallangan va buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ishlarning bosqichlari bo'yicha xarajatlar summasining hisobdan chiqarilishi		
30	Boshqa chiqib ketgan (tekinga berish va boshqalar) mahsulot tannarxining hisobdan chiqarilishi		
31	Tabiiy ofatlar, yong'in va shu kabilar natijasida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar hisobdan chiqarildi		
32	Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan moddiy qiymatliklarning kamomadi		

Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2300)

Korxonaning asosiy ishlab chiqarishiga yoki asosiy faoliyatiga Yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi hisoblangan ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotida amalga oshiriladi.

Ushbu schyot quyidagilarni ta'minlaydigan, ish-lab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uchun qo'llaniladi:

a) energiyaning turli xillari (elektr energiyasi, bug' va boshqalar) bilan xizmat ko'rsatish;

b) transport xizmatini ko'rsatish;

v) asosiy vositalarni ta'mirlash;

g) asboblarni, to'rtburchak muhrlar, ehtiyot qismlar, qurilish detallari va konstruktsiyalarini tayyorlash yoki qurilish materiallarini boyitish (asosan qurilish korxonalarida);

d) tosh, shag'al, qum va boshqa ruda bo'lmagan materiallarni qazib olish;

e) yog'och materiallarini tayyorlash va taxta qilish;

j) qishloq xo'jalik mahsulotlarini tuzlash, quritish va konserva qilish (asosan, savdo korxonalarida).

Bundan tashqari ushbu schyotlarda korxona balansida turuvchi ilmiy tekshirish va tajriba konstruktorlik bo'linmalarining xarajatlari aks ettirilishi mumkin.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining debeti bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar shuningdek, Yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar va yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq to'g'ri xarajatlar 2310 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga, ishlab chiqarish zaxiralari, mehnat haqi to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar, asosiy vositalarga eskirish va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotiga 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari" schyotidan hisobdan chiqariladi. Yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar ayrim hollarda bevosita 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotida hisobga olinishi mumkin.

Yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotiga 2610 "Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar" schyotidan hisobdan chiqariladi.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining kreditida tugallangan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish haqiqiy tannarxining summolari aks ettiriladi. Ushbu summalar 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining kreditidan 2010 "Asosiy ishlab chiqarish", 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari", 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar", 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi", 9420 "Ma'muriy xarajatlar" schyotlariga va boshqa schyotlar bilan bog'langan holda hisobdan chiqariladi.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha analitik hisob xarajat elementlari va moddalari bo'yicha va mahsulot turlari bo'yicha yuritiladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko'rsatadi.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini ko'rsatadi.

2.3-jadval

Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar
(2300)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Yordamchi ishlab chiqarish tsexlarida foydalanilayotgan asosiy vositalarning eskirishi		
2	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari taalluqli nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblandi		
3	Yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun materiallar sarflandi		
4	Mahsulot olish uchun hayvonlarning so'yilishi		
5	Tugallanmagan mahsulotni qayta baholash a) qiymatining oshirilishi b) qiymatining kamaytirilishi		
6	Materiallar qiymatidagi farqlarni hisoblangan ulushlarda Yordamchi ishlab chiqarish schyotlariga hisobdan chiqarish		
7	O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning Yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sarflanishi		
8	Umumishlabchiqarish xarajatlarining tegishli ulushi Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga kiritilishi		
9	Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlashdagi yaroqsiz mahsulotdan ko'rilgan yo'qotishlar ularning tannarxiga kiritilishi		
10	Kelgusi davrlar xarajatlarining ulushi Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga kiritildi		
11	Asosiy tsexlarning mahsulotlari Yordamchi ishlab chiqarish		

	ehtiyohlari uchun ishlatildi		
12	Mol etkazib beruvchilardan Yordamchi ishlab chiqarishga moddiy qiymatliklar va xizmatlar (suv, bug', energiya va xokazo) kelib tushdi		
13	Qondirilmagan daʼvolar summasining Yordamchi tsexlarga tegishli bo'lgan qismi ularning mahsuloti, ish va xizmatlari tannarxiga hisobdan chikarildi		
14	Yordamchi ishlab chiqarishdagi sug'urta xarajatlari		
15	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar		
16	Yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to'lash bo'yicha summalarning hisoblanishi		
17	Yordamchi ishlab chiqarishga ko'rsatilgan xizmatlari bo'yicha turli korxonalarga bo'lgan qarzlar		
18	Olingan summadan ortiqcha xarajat qilganliklari uchun hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar		
19	Ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining Yordamchi ishlab chiqarish tsexlariga ko'rsatgan xizmatlari		
20	Yordamchi ishlab chiqarishdagi tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchasi kirim qilindi		
21	Yordamchi ishlab chiqarish tomonidan o'rnatiladigan asbob uskunalarni xarid qilishda qilingan xarajatlari asbob uskunalar qiymatiga qo'shildi		
22	Kapital qo'yilmalarda amalga oshirilgan Yordamchi tsexlarning xarajatlari va xizmatlari hisobdan chiqarildi		
23	Ilgari Yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun hisobdan chiqarilgan materiallarning qaytarilishi		
24	Yordamchi ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan ehtiyot qismlar kirim qilindi		
25	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining o'stirishdagi va boquvdagi xayvonlar tannarxiga kiritilishi		
26	Materiallarni tayyorlash va xarid qilishda Yordamchi ishlab chiqarishning ko'rsatgan xizmatlari va xarajatlari		
27	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlari o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarining tannarxiga kiritildi		
28	Yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish bo'yicha Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari		
29	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga o'tkazilishi		
30	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarining (mavsumiy tarmoqlarda) kelgusi davr xarajatlariga olib borilishi		
31	Yordamchi ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar kirim qilindi		
32	Yordamchi ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning tovar sifatida kirim qilinishi (savdo korxonalari va shu kabilarda ushbu schet qo'llanilganda)		
33	Mahsulotlarni sotish va etkazib berishda Yordamchi ishlab chiqarishning ko'rsatgan xizmatlari hisobdan chiqarildi		

34	Yordamchi ishlab chiqarishning mahsulotlari va bajarilgan ishlari, ko'rsatgan xizmatlarining haqiqiy tannarxini hisobdan chiqarish		
35	Yordamchi ishlab chiqarishning sotish va turli chiqib ketishidagi xarajatlarining hisobdan chiqarilishi: asosiy vositalar; nomoddiy aktivlar		
36	Boshqa korxonalarga Yordamchi ishlab chiqarishning investitsiya tariqasida mahsulotlari berildi va xizmalari ko'rsatildi		
37	Ajratilgan bo'linmalarga Yordamchi ishlab chiqarishning xarajatlari hisobdan chiqarildi yoki mahsulot berildi		
38	Tabiiy ofat, yong'in va shu kabilar natijasida ko'rilgan Yordamchi tsexlarning zararlari hisobdan chiqarildi		
39	Yordamchi ishlab chiqarishdagi aniqlangan moddiy qiymatliklarning kamomadi va buzilishlari		
40	Qaytariladigan va ko'p marta ishlatiladigan idishlar bo'yicha xarajatlar va yo'qotishlar		

„O'ztemiryo'lkonteyner" AJ korxonasida xarajatlar quyidagi schyotlarda yuritiladi:

2012 - „Ortish - tushirish ishlari xarajatlari"

2013 - „Tijorat operatsiyalar xarajatlari"

2015 - „Tarozi xo'jaligi xarajatlari"

2016 - „Konteyner tashishlar xarajatlari"

2017 - „Ekspeditorlik xarajatlari"

2018 - „Bojxona ombori xarajatlari"

2360 - „Asfaltobitum zavodi xarajatlari"

2390 - „Avtotashishlar xarajatlari"

9410 - „Sotish xarajatlari"

9420 - „Ma'muriy xarajatlar"

9430 - „Boshqa operatsion xarajatlar"

9610 - „Foiz ko'rinishidagi xarajatlar"

9620 - „Valyuta kurslari farqidan zararlar"

2.4 - jadval

„O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ korxonasida xarajatlarning sintetik hisobi

Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni	debet	kredit	summa
Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi			
Ishchilarga ish haqi hisoblandi			
Yagona ijtimoiy to‘lov hisoblandi			
Ishlab chiqarishga materiallar sarfi			
Ishlab chiqarishga yoqilg‘i sarflandi			
Xizmat safari xarajatlari			
Mol yetkazib beruvchilarning bajargan ish va ko‘rsatgan xizmatlari			
Reklama xarajatlari			
Auditorlik xizmatlari uchun to‘lovlar			
Shubhali qarzar rezervi tashkil qilindi			
Hisoblangan jarima va penyalar			
Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar hisoblandi			

D-t 2010-2310 K-t	D-t 9010 K-t	D-t 9430 K-t
25600000		
14398876000		
D-t 9610 K-t		
158072000		
158072000		

2.2.-chizma. Xo‘jalik operatsiyalarini schotlarga tarqatilishi

III BOB. Korxonada axborot tizimida moliyaviy natijalar tahlil imkoniyatlari

3.1. Korxona moliyaviy natijalar tahlilining turlari

Buxgalteriya hisobining integratsiyalash tizimi tariqasida birlamchi xo'jalik operatsiyalarini qayd qilishning avtomatlashtirilishi mehnat sarfini kamaytirish va ma'lumotlarning haqqoniyligini oshirish imkonini beradi. O'z navbatida, tizimda qo'llaniladigan ichki nazorat xatolarni kamaytirishga, ma'lumotlar ishonchliligi va aniqlilik darajasini oshirishga olib keladi.

Qo'yilgan masalani yechish uchun buxgalteriya hisobining integratsiyalashgan "Yig'ma hisobot" tizimi ishlab chiqilgan. Tizimni ishlab chiqishda biz markazlashgan holda tuzish variantini tanladik, chunki qog'oz shaklida ma'lumotlar hajmi aylanmasini maksimal kamaytirish maqsadida yagona tizimdagi boshlang'ich buxgalteriya ma'lumotlarni qayta ishlash, barcha hisoblarni yagona tizimga birlashtirish lozim. .

Tadqiqot natijalari asosida BHATning afzalliklari aniqlandi (3.1-jadval). Tizim quyidagi asoslangan tamoyillar asosida foydalanuvchilar o'rtasida almashinuvni ta'minlaydi:

- Hujjatlarning elektron ko'rinishda almashinuvini tadbiq qilish, tashish va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirishni avtomatlashtirish;
- Birlamchi hujjatlardan axborotlarni bir martada yig'ish, qayta ishlangan axborotlarni saqlash ishonchliligini oshirish, har xil turdagi masalalarni yechishda tizimdagi axborotlardan ko'p marotaba foydalanish;
- Ma'lumotlarni minimal hajmda kiritish, yetishmayotgan ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda me'yoriy-ma'lumotli manbalardan olish;
- Axborotning yuqori darajada haqqoniyligi;
- Real vaqtda ma'lumotlarni olish va qayta ishlash, birlamchi hujjatlarni qayta ishlash tezligini oshirish;
- Tashish jarayonida qatnashuvchilariga, yuk egalariga ko'rsatiladigan axborot xizmatini takomillashtirish;

- Markazlashgan tasnifgichlardan foydalanib, yagona me'yoriy bazani yaratish;
- Tijorat ishlarini avtomatlashtirish uchun kompaniyada qo'llanilayotgan boshqaruv tizimining chiziqli-funksional imkoniyatlarini kengaytirish.

3.1-jadval

Buxgalteriya hisobi axborot tizimlaridan foydalanish

BHAT afzalliklari	BHAT xossalari hisobiga erishilgan afzalliklar
1.BHAT foydalanuvchilari uchun	
1.1.BHATga talablar oshishi natijasida investitsiyalarning saqlab qolinishi	Kengaytirilishi, alohida muayyan ilovalarning almashinuvi, miqyoslilik
1.2. Boshqa tizimdagi axborot resurslaridan foydalanish	Integratsiyalsh
1.3. Odam-mashina interfesining shakllantirilishi, BHATning boshqa versiyalariga o'tkazishda xodimlarni o'qitish xarajatlarining kamaytirilishi	Foydalanuvchilarga yetib borishi
1.4. Bitta texnik va dasturiy vositalarni yetkazuvchi aloqadorligidan bo'shatilganlik	Ilovalarning yetib borishi
2.BHAT loyihalovchilari va tizimiy integratorlar uchun	
2.1. Har xil amaliy platformalarni qo'llash imkoniyati	Ilovalarning yetib borishi
2.2. Tayyor ilovalardan qayta foydalanish	Ilovalarning yetib borishi
2.3. Mavjud axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati	Integratsiyalashga omkin yaratish
2.4. "Meros tizimlar" muammosi yechimini yengillashtirish	Integratsiyalashga omkin yaratish
2.5.BHATni loyihalashtirish va tahlil vositalarining zamonaviy texnologiyalarini qo'llash	Amaliy platformalar o'rtasida ilovalarni tashish
3.Amaliy dasturchilar uchun	
3.1.Amaliy-dasturiy majmualar modulining tashkil etilishi	
3.2.Standartlashgan dasturiy interfeyslarni qo'llash	
3.3. Amaliy dasturlar amkoniyatlarini qo'llash	
4. Texnik va dasturiy vositalarni yetkazib beruvchilar uchun	
4.1. Yangi apparat platformalariga amaliy va tuzilmaviy vositalarini o'tkazish xarajatlarini kamaytirish	Dasturlarning o'tkazilishi
4.2. Ishlab chiqarilayotgan dasturiy mahsulotlarni boshqa mahsulotlar bilan integratsiyalash imkoniyati	Integratsiyalashga imkoniyat yaratish
4.3. Ishlab chiqarilayotgan apparat-dasturiy platformalarning sotilish bozorlarini va qo'llash sohalarini kengaytirish imkoniyatlari	

* Manba: S.M. Sultanova tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Buxgalteriya hisobining integratsiyalashgan axborot tizimidan foydalanib iqtisodiy samaradorlikning hisoblanishi Moliya va buxgalteriya hisobi boshqarmasi bajargan ishini optimallashtirishga asoslanadi. Asosiy nazarda tutilgan maqsaddan tashqari, tizimni tadbiq etish natijasida quyidagi joriy xarajatlar kamayadi:

- Lavozimlar bo'shatilishi;
- Standartlashgan operatsiyalarni bajarish vaqtining kamayishi;
- Elektrenergiya xarajatlarining kamayishi;
- Kanselariya vositalarini sotib olish xarajatlarining kamayishi.

Ish haqiga yillik xarajatlarning kamayishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta Z_{3/\Pi} = (n \cdot 3) \cdot 12;$$

bunda: n – bo'shatilgan xodimlar soni;

3 – ularning o'rtacha oylik ish haqlari.

Bo'lim ishlashi uchun bir yilga kanselariya vositalari miqdori belgilanadi.

Ushbu xarajatlarning kamayishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta Z_{p.m.} = 0,7 \cdot S_{kl};$$

bunda: S_{kl} – kanselariya xarajatlarining yillik summasi;

Elektrenergiyasining ortiqcha xarajati summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{yil} = N_{pc} \cdot T,$$

Bunda: T – foydalanuvchi yil davomida me'yordan ortiq ishlagan soatlar.

Agar bo'lim xodimlari o'z ishini o'z vaqtida qilishsa, unda elektrenergiya tejami natijasida xarajatlar kamayishi quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Z_{\text{э.}} = E_{yil} \cdot \Pi_{\text{кв}},$$

Bunda: $\Pi_{\text{кв}}$ - 1 kVt-soat elektrenergiyaning narxi.

Jami tadbiq etilayotgan moliyaviy hisob tizimining yil mobaynida xarajatlari kamayishi summasi:

$$\Delta \Pi_{\Sigma} = \Delta Z_{3/\Pi} + \Delta Z_{p.m.} + \Delta Z_{\text{э.}}$$

bunda: $\Delta \Pi_{\Sigma}$ - umumiy kamaygan xarajatlarning summasi;

$\Delta Z_{\text{э}}$ – Elektrenergiyasini tejash vazigaxarajatlarning kamayish summasi;

$\Delta Z_{\text{p.m}}$ - Devonxonamateriallarixarajatlarning kamayish summasi.

Yangi BHATni yaratishning yillik samaradorlik ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$\Theta_r = \Delta Z / (E_H + K_p),$$

bunda: ΔZ – axborot tizimini yaratish va xizmat ko'rsatish xarajatlarning o'zgarishi:

$$\Delta Z = \Delta I_{\Sigma} - K(E_H + K_p),$$

ΔI_{Σ} - bo'lim ishi xarajatlarning mutloq o'zgarishi;

E_H – Kapital qo'yolmalarning me'yoriy koeffitsiyenti (kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot uchun 0.15)

K_p – renovatsiya koeffitsiyenti amortizatsiya me'yori sifatida asbobning xizmat muddatini hisobga olgan holda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_p = E_H / (1 + E_H)^{T_{\text{сн}}} - 1,$$

Yillik xarajatlarni tejashni t -yil bo'yicha hisoblash capital xarajatlarning o'zini qoplash muddati (T_p) aniqlanadi.

$$T_p = K / \Theta_r$$

Yuqorida keltirilgan usulni aniq korxonada bevosita kompyuter texnologiyalarini tadbiq etish jarayonida qo'llash mumkin.

3.2. Korxonada axborot tizimida moliyaviy natijalarning tahlil imkoniyatlari

2009-yil boshidan mehnatga haq to'lash va ish haqi hisobi hamda TMZ hisobi to'liq buxgalterning avtomatlashtirilgan ish joyida olib boriladi. Bunda albatta BHATning afzalliklari ko'zga tashlanadi.

Korxonaning moliyaviy faoliyatini shaxsiy elektron hisoblash mashinalari(ShEHM) yordamida majmuaviy tahlil qilishning yo'nalishlaridan biri keltirilgan. Korxonaning moliyaviy holati tahlilini o'tkazish texnologiyasi ekspress-modellashtirishning soddalashtirilgan ko'rinishi bo'lib, o'zgaruvchan sharoitlarda ham foydalanuvchilarga o'z kuchi bilan keng ko'lamda namunaviy dasturlar yordamida operativ rejimda hamda kam kuch sarflagan holda tahlil o'tkazish imkoniyatini beradi.

Ushbu uslubiyot buxgalteriya hisobini elektron ko'rinishda yuritish, ya'ni operatsiyalarni yuritish kitobi, joriy davr aylanmalarining har bir schoti bo'yicha va balansni avtomatlashtirilgan tarzda yuritish imkoniyatini beradi. Bu uslub elektron balans ma'lumotlariga asoslanib, korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi elektron ko'rinishdagi ko'rsatkichlar asosida korxonaning moliyaviy ahvolini baholashga yordam beradi.

Zamonaviy tipdagi ShEHMlarni katta hajmda hisob operatsiyalari bo'lmagan hisob ishlarida samarali qo'llash mumkin. Joriy balansning ShEHM asosida avtomatlashtirilgan ish joyida tuzilishi va yuritilishi uni tayyorlash vaqtini qisqartiradi va mehnattalabligini kamaytiradi, "Buxgalteriya hisobi" tizimchasiga kiruvchi barcha masalalarni o'zaro bog'laydi. Buxgalteriya hisobining barcha schotlari bo'yicha "Sintetik va analitik schotlar va ko'zda tutilgan korrespondensiyalar bo'yicha ma'lumotnoma" ko'rinishidagi korrespondensiyalar jadvalidan foydalaniladigan me'yoriy axborotlar fondi shakllantiriladi. Bunday jadval tuzilishida hisobvaraqlar rejasi asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, balans moddalari va satrlari nomlarining EHM xotirasida saqlanishi ko'zda

tutiladi. Buning uchun sintetik schotlar va subschotlar kodlari, xo'jalik operatsiyalarining, bo'limlarning va qoldiq balans satrlarining turlaridan foydalaniladi.

Hisobvaraqlar rejasi va buxgalteriya balans moddolari o'rtasidagi bog'liqlik har bir sintetik schot kodiga balans moddasi raqami to'g'ri keluvchi maxsus jadval yordamida o'rnatiladi va shu asnoda, ShEHM xotirasida balans moddolari ko'rsatkichlari shakllantiriladi.

Buxgalteriya balansini to'ldirishdagi dastlabki ma'lumotlar mashinagarammali registrlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ular schotlarning analitik va sintetik taqqoslama hisobini doimiy va o'zgaruvchan (dastlabki va yakuniy) massivlar asosida taqdim etadi. Yakuniy massivlarning ko'pchiligi oylik buxgalteriya registrlarini tuzish vaqtida paydo bo'ladi. Shu bilan birgalikda, kompyuter xotirasida aylanma summalarining saqlanishi natijasida chorak, yarim yillik va yillik balanslarni tuzishda zarur bo'lgan ma'lumotlar massivi yig'iladi.

“Bosh kitob” mashinogrammasida korrespondentsiyalashadigan schotlar bo'yicha oborotlar hamda kiruvchi va chiquvchi qoldiqlar chop etiladi.

“Aylanma-saldo balans” mashinogrammasida har bir sintetik schot bo'yicha joriy davr, kiruvchi va chiquvchi qoldiq aylanmalarining yakunlari ko'rsatiladi. Aylanma-saldo balansibalans schotlari bo'yicha registr-mashinogrammalarini va chiquvchi qoldiq summalarni tayyorlashni nazorat qiladi. Shuningdek, u sintetik schotlarning barchasi bo'yichaaylanmalarni solishtirishda ham foydalaniladi.

“Qoldiq balans” mashinogrammasi chiquvchi qoldiqlar massivi asosida chop etiladi. Ushbu massiv analitik hisob registrlari, aylanma qaydnomalar tayyorlanishida avtomatik tarzda, alohida schotlar bo'yicha esa bosh kitob ishlab chiqilganda yaratiladi. Mashinogrammada sintetik hisoblar, balans satr raqamalri va butun massiv bo'yicha yakunlar hisoblab chiqiladi (3.2-jadval). Natijalar ma'umot olish maqsadida va “Korxona balans” – I shaklni to'ldirishda ishlatiladi.

Korxonaning 01.01.2015 yil holatiga Buxgalteriya balansi – 1-sonli shakl
ma'lumotlari (ming so'm) *

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi.	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
AKTIV			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)			
Eskirish summasi (0200)			
qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 - 011)			
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang'ich qiymati (0400)			
Amortizatsiya summasi (0500)			
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)			
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan:			
Kimmatli qozozlar (0610)			
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)			
qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)			
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)			
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)			
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)			
Kapital qo'yilmalar (0800)			
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)			
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)			
I bo'lim bo'yicha jami (satr. 012+022+030+090+100+110+120)			
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.150+160+170+180), shu jumladan:			
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)			
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)			
Tayyor maisulot (2800)			
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)			
Kelgusi davr xarajatlari (3100)			
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)			
Debitorlar, jami (satr.220+240+250+260+270+280+290+300+310)			
shundan: muddati o'tgan			
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)			
Ajratilgan bo'linmalarining qarzi (4110)			

Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarning qarzi (4120)			
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)			
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)			
Byudjetga soliq va yijimlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)			
Maqsadli davlat jamjarmalari va sujurtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)			
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)			
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700)			
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)			
Pul mablajlari, jami (sitr.330+340+350+360), shu jumladan:			
Kassadagi pul mablajlari (5000)			
Hisob-kitob schyotidagi pul mablajlari (5100)			
CHet el valyutasidagi pul mablajlari (5200)			
Boshqa pul mablajlari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)			
qisqa muddatli investitsiyalar (5800)			
Boshqa joriy aktivlar (5900)			
II bo'lim bo'yicha jami (sitr.140+190+200+210+320+370+380)			
Balans aktivi bo'yicha jami (sitr.130+390)			
PASSIV			
I. O'z mablajlari manbalari			
Ustav kapitali (8300)			
Qo'shilgan kapital (8400)			
Rezerv kapitali (8500)			
Sotib olingan xususiy aktsiyalar (8600)			
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)			
Maqsadli tushumlar (8800)			
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900)			
I bo'lim bo'yicha jami (sitr.410+420+430-440+450+460+470)			
II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (sitr.500+520+530+540+550+560+570+580+590)			
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (sitr.500+520+540+560+590)			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)			
Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)			
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)			
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)			
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)			
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)			
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300)			

Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)			
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)			
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)			
Joriy majburiyatlar , jami (sitr.610+630+640+650+660+670+680+690+700+710+ +720+730+740+750+760)			
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlar (sitr.610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)			
shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlar			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)			
Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110)			
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120)			
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)			
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)			
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)			
Olingan bo'naklar (6300)			
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)			
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)			
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)			
Ta'sisчилarga bo'lgan qarzlar (6600)			
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)			
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)			
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)			
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)			
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)			
II bo'lim bo'yicha jami (sitr.490+600)			
Balans passivi bo'yicha jami (sitr.480+770)			

*Manba: Корхонанинг 2014-yil hisoboti

Balansning uchinchi ustuni hisobot davrining boshidagi qoldiqma'lumotlariga asosida davlat o'rtinchi ustuni hisobot davri oxiridagi qoldiqma'lumotlariga ko'rato'ldiriladi. Balans moddalariga bir nechta qoldiq summalaritegishli bo'lishi mumkinligi sababli, aniqlik moddanishakllantirishda jadvaldan qoldiqlarima'lum moddagayig'iladigan schotlarning barcha kodlarini tanlash lozim. Keyin massivdan ushbu summalarni schotlar, subschotlar, analitik hisob moddalari kodlari bo'yicha yig'ib olish kerak. Balans aktivi va passivi bo'yicha natijalar oraliq natijalar yig'indisi sifatida hisoblanadi (3.3-jadval).

3.3-jadval

Korxonaning yig'ma ko'rinishdagi analitik balansi (mim so'm) *

Balans moddalari	Hisob-kitob	Hisobot davri boshi	Hisobot davri oxiri
1.Uzoq muddatli aktivlar (F)			

2.Joriy aktivlar (Z)			
Balans aktivi bo'yicha (B)			
O'z mablag'lari manbalari(I)			
2.Majburiyatlar (R)			
Balans passivi bo'yicha (B)			

*Manba: "O'ztemiryo'lkonteyner" AJkorxonasi 2014-yilhisoboti

Ushbujadval "O'ztemiryo'lkonteyner" AJkorxonasining 01.01.2015 yilholatiga Buxgalteriyabalansi – 1-sonli shakl ma'lumotlarini tasodifiy tuzilgan agregatlangan yig'rib, unda balans bo'limlarini moddalarini shakllantirishda 3.2-jadvaldan qoldiqlarini ma'lum moddagayig'iradigan shotlarning barcha kodlarini talangan va shu asosda korxonaning balansini hamda moliyaviy holatini tahlil qilish birmuncha osonlasadi.

3.4-jadvalda 3.2- va 3.3-jadvallardan foydalangan holda taqqoslama analitik balans tuzilgan.

3.4-jadval

Taqqoslama analitik balans *

Balans moddalari	O'zgarish				Pul mablag'larining o'zgarishi	
	Mutloq		Nisbiy		Mutloq, ming so'm	Nisbiy, %
	hisobot davri boshiga, ming so'm	hisobot davri oxiriga, ming so'm	hisobot davri boshiga, %	hisobot davri oxiriga, %		
1.Uzoq muddatli aktivlar (F)						
2.Joriy aktivlar (Z)						
Balans aktivi bo'yicha (B)						
1.O'z mablag'lari manbalari (I)						
2.Majburiyatlar (R)						
Balans passivi bo'yicha (B)						

*Manba: Корхонанинг 2014-yil hisoboti

Taqqoslama balans esa korxona ichida balansda aks ettirilgan axborotdan xo'jalik faoliyatining tahlilida, xarajat va yo'qotishlarni qisqartirish uchun zaxiralarni izlashda, korxona tasarrufida qoluvchi foyda hisobidan to'lanadigan jarimalarni yo'qotishda foydalaniladi. U balansda ko'rsatilmagan rejalar va me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtirishda muhim ahamiyatli hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini takomillashtirish sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish vazifasini qo'yish va hal qilish masalasini axborot tizimlari (AT) bajarib, ularning asosini axborot texnologiyalari tashkil qiladi.

Boshqaruv qarorini qabul qilish jarayoni quyidagilardan iborat:

- axborotni qabul qilish;
- axborotni qayta ishlash;
- boshqaruvqarorinitahlilqilish, tayyorlashvaqabulqilish.

Bujarayonningnatijasibo'libboshqaruvqarorinitahlilqilish, tayyorlashvaqabulqilishhisoblanadi.

Boshqaruvqaroriningsamaradorligidastlabkima'lumotlarningqabulqilinishivaqaytai shlashtezkorligigabog'liq.

Buxgalteriyavaboshqaruvhisobiniavtomatlashtirishningzamonaviytizimlariyirikhajmdahisobotshakllarinitaklifqiladi,

ammoko'rsatkichlarningtahlilifoydalanuvchiningo'zitomonidanamalgamoshirilishi kerak.

Quyidahisobningistalganpaytidakorxonaningmoliyaviyholatinimajmuaviyko'rsatkichlaryordmidatezkortahlilqilishuslubiberilgan.

BuusulEXCELjadvalprotssessoriasosidaishlabchiqilgan.

24 aprel 2015 yil “4720-sonli Prezident qarori”ga muvofiq aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini tadbiq etish chora tadbirlari to’g’risida va O’TY aksionerlik jamiyatining 218-N 8.05.2015 yilgi buyrug’iga binoan kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo’yicha chora tadbirlar ishlab chiqildi. Ushbu dasturning V-bo’limiga muvofiq korporativ boshqaruv tarmog’iga zamonaviy axborot texnologiyalari ni tadbiq etish chora tadbirlaridan biri AJdagi investitsiya ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish zamonaviy axborot tizimlarini asosida tadbiq etilish ko’zda tutilgan.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda yirik korxonalarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish muammosi hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu avvalambor, katta hajmdagi axborotlarni yig'ish, ularga qayta ishlov berish, tahlil qilish va ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqtida ratsional foydalanishdan iborat.

2008-yil 9-sentabrda tasdiqlangan muvofiq "O'TY" ni axborotlashtirish to'g'risidagi Dastur"ga temir yo'l transportida o'tkazilayotgan islohotlar va tuzilmaning qayta ko'rib chiqilishi munosabati bilan tarmoqda ishlab chiqarish, texnologik va moliyaviy jarayonlar rivojlanmoqda. Ushbu jarayonlar esa buxgalteriya hisobida zamonaviy axborot tizimli yuqori texnologiyalarni qo'llashni talab etmoqda. Temir yo'l transportida buxgalteriya hisobining integratsiyalashgan axborot tizimini qo'llash, avvalo, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining aylanmasini tezlashtirish, hisob samarasini oshirish, boshqaruv organlariga haqqoniy ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida quyidagi xulosalarga kelinadi:

- Korxonamoliyaviy-iqtisodiy holati ijobiy bo'lib, ko'rsatkichlarning aksariyati (ekspluatatsion t-km, yukvayo'lovchitashish hamda moliyaviy natija) 2014-yil hisobotiga ko'ra ijobiy natijabilan oshirib bajarilgan ;
- Korxonaning moliyaviy natijasi rejaga nisbatan ancha past bajarilgan;
- Korxonada 2014-yilda mehnatga haq to'lash va ish haqi, tovar moddiy zaxiralari, asosiy vositalarning hisob uchastkalari bo'yicha bob buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimiga o'tildi;
- BHAT bilan oson ishlash uchun buxgalterlar operatorlar yordamida qayta tayyorlandi;
- Korxonada BHATga o'tilishi samarali ekanligi o'z isbotini topdi.

Bitiruv malakaviy ishdagi keltirilgan tahlili asosida «O'ztemir yo'l konteyner» AJ korxonasining "Axborot tizimida moliyaviy hisobot va buxgalteriya

ko'rsatkichlariningshakillanishi"va quyidagi optimallashtirish tavsiyalari keltirilgan:

1. Korxonaning moliyaviy holatini joriy o'rganish va tahlil qilish uchun bitiruv malakaviy ishida Excel jadval protsessori yordamida ishlab chiqilgan korxona moliyaviy holat ko'rsatkichlarini tadbiq qilish;

2. Rejaviy ko'rsatkichlarni korxonaning haqiqiy holatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish;

3. Yordamchi-ko'makdosh faoliyatni kengaytirish, bu faoliyat turidan keladigan foyda va korxona samarasini oshirish maqsadida kommunikatsion texnologiyalar tizimini kengaytirish va bu sohada servisni yaxshilash;

4. Xodimlar malakasini doimiy oshirish maqsadida maxsus trening kurslarini o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Темир йўл транспорти тўғрисида”ги қонуни.- Тошкент. 15.04.1999 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг Темир йўл транспортига оид қонуний меъёрий ҳужжатлар.
3. Ўзбекистон Республикаси “Бухгалтерия тўғрисида” ги Қонуни.- Тошкент. 1996 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси – Тошкент. 2014 й.
5. “Маҳсулот (ишлар, хизматлар) ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида” Низом Т.:1999, 2004, 2010 й.
6. Жорий йил учун иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш натижалари тўғрисида ва келгуси йилдаги истиқбол режалари” 2015 йил январь, Халқ сўзи
7. А.П. Красов. «Бухгалтерский финансовый учет на железнодорожном транспорте» -М.: Транспорт, 2008 г.
8. Бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақалари режаси -Т.:2010 й.
9. А.Каримов, Ф.Исломов, А.Авлокулов, “Бухгалтерия ҳисоби” - Тошкент.: 2004 й.
10. Э.А.Акрамов, “Корхоналарнинг молиявий ҳолати” Молия- Тошкент.: 2004 й.
11. Н.И.Силаев “Темир йўл транспорти молияси” - Тошкент. 2004 й.
12. Н.И. Силаев, Ф.К.Абдуллаева “Анализ хозяйственной деятельности предприятий железнодорожного транспорта” - Тошкент.: 2010 г.
13. Вахобов А.А. “Молиявий таҳлил” - Тошкент.: 2005 й.
14. Гулямова Ф.Г. “Самоучитель по бухгалтерскому учёту”- Тошкент.:2008 г
15. В.А Хасанов, А.А.Хасанов. Boshqaruv hisobi. Toshkent,-2013.-20экз.
16. Jo’rayev M.J., Abduvohidov F.T., Sotiboldiyeva D.A. Moliyaviy va boshqaruv

hisob. Toshkent., Iqtisod-moliya darslik. 2010yil.

17. S.M. Sultanova, F.K. Turayev., “Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish”.
Toshkent.: 2011 yil.

18. <http://www.norma.uz>

19. <http://www.buhonline.ru>

20. <http://www.buh.uz>

21. <http://www.glavbuk.ru>

22. <http://www.lex.uz>